BARMOQ MUSKULLARI BUKUVCHI KUCHINING TAXLILI.

Abduxalilova O'g'iloy Muhammadodil qizi,
Xodjayeva Aziza Ne'matjon qizi, Xolmirzaeva Madina Akramjanovna
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Andijon viloyatining Asaka tumanidagi 53-maktabning 5-6 sinf o'quvchilarining qo'l kuchi (o'ng qo'l va chap qo'l) ko'rsatkichi natijalari tahlil qilingan va jismoniy ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Annotation: In this study, the results of hand strength (right hand and left hand) of school 53 in Asaka district of Andijan region were analyzed and physical indicators were studied.

Аннотация: В данном исследовании были проанализированы результаты силы рук (правая и левая рука) учащихся школы 53 Асакинского района Андижанской области и изучены физические показатели

Kalit so'zlar: dinamometriya, o'quvchilarni qo'l kuchi, qo'l muskullari, jismoniy rivojlanish.

Key words: dynamometry, student hand strength, hand muscles, physical development.

Ключевые слова: динамометрия, сила рук учащихся, мышцы рук, физическое развитие.

Organizmning asosiy antropometrik ko'rsatkichlariga tana vazni, bo'y uzunligi va ko'krak qafasi aylanasi bilan birgalikda, qo'shimcha ravishda dinamometriya uslubi yordamida qo'l kuchi ko'rsatkichi qiymatini aniqlash ham kiritiladi. Ushbu antropometrik ko'rsatkichlar odam organizmining umumiy salomatlik holatiga va tashqi muhit sharoitlariga moslanish mexanizmlarining namoyon bo'lish darajasini ham belgilab beradi [1; 2; 3;].

Ayniqsa, bolalar organizmining antropometrik ko'rsatkichlarining iqlim–geografik sharoitlar omillariga bog'liq dinamikasini o'rganish bevosita, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi odamlar populyatsiyasi tarkibida bolalar salomatlik holatini baholash va shuningdek, ushbu yo'nalishda hududiy standartlar chora–tadbirlar kompleksini ishlab chiqish imkonini beradi [1; 4; 5;].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holatda, ushbu tadqiqot ishining maqsadi –Andijon viloyati Asaka tumani 53-umumta'lim maktabning 7-8-sinfda o'qiyotgan va Andijon olimpia va parolimpia sport turlariga tayyorlash markazida stol tennisi bilan shug`ullanayotgan sog'lom bolalarda qo'l kuchini o'rganshdan iborat bo'ldi. Ular qo'l muskullarining maksimal kuchini aniqlandi.

O`quvchilarning o`ng va chap qo`l dinomometriyasi o`lchangandan so`ng olingan natijalar quyidagicha bo`ldi: 53-umumta'lim maktabining 7-sinf o`quvchilari o`ng qo`l dinomometriyasining eng yuqori ko`rsatkichi 40 kg/m, eng quyi ko`rsatkich 20 kg/m ni tashkil qildi, o'rtacha ko`rsatkich 29 kg/m natijaga ega bo'ldi. Chap qo`lda yuqori ko'rsatkich 40 kg/m, past ko`rsatkich 18 kg/m, o'rtachasi 29 kg/m ni ko'rsatdi.

8-sinf o`quvchilari orasida o`ng qo`l dinomometriyasining eng yuqori ko`rsatkichi 40 kg/m, past ko`rsatkich 22 kg/m, o'rtacha ko`rsatkich 30 kg/m. Chap qo`lda yuqori ko'rsatkich 36 kg/m, past ko`rsatkich 20 kg/m, o'rtachasi 26 kg/m ni tashkil qildi.

Olingan natijalar taxlilidan shuni xulosa qilish mumkinki:

7-8 sinflarda o'quvchilarida muskullarning o'sish va rivojlanishi jadal ravishda kechadi. Shunga mos ravishda ularning Barmoqning bukuvchi muskullari kuchi ham sezilarli o'sib

boradi. Olingan natijalarga ko'ra qo'l barmoqlarining bukuvchi muskullari maksimal qisqarish kuchi yoshga bog'liq holda ortib bormoqda va ular o'rtasidagi farq sezilarli darajada. Bu holat muskul tizimining o'sish va rivojlanish jarayonini qonuniyat asosida ketayotganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бассам Х.О. Абдель Разек. Оценка физического состояния учащихся младших классов (7–12 лет) мужских школ Палестины // Автореферат дисс. ... к.физ.–вос.спорт.н. – Киев, 2000. – С.3–19.
2. Буракова Е.Н. Динамика изменений антропометрических показателей у детей Самарского региона в постнатальном периоде онтогенеза // Дисс. ... к.мед.н. (14.03.01–анатомия человека). – Самара, 2016. – С.3–19.
3. Гаврильева К.С. Морфо-функциональная характеристика состояния здоровья юных спортсменов и эффективность влияния пантовой массы северного оленя на восстановительные процессы организма // Автореферат дисс. ... к.мед.н. (14.01.08–педиатрия). – Якутск, 2017. – С.4–21.
4. Комиссарова Е.Н., Абдыганыев Н., Саттаров А.Э., Джолдошева Г.Т. Особенности роста массы и длины тела у школьников в условиях высокогорья юга Кыргызстана // Вестник Ошского государственного университета. – 2012. – №3. (Вып. II). – С.90–92.
5. Сафронов А.А., Арисланов И.Т. Динамика физического развития и физической подготовленности учащихся 5–6 классов // Молодой ученый. – 2013. – №7. – С.455–458.